

SHAXS PSIXOLOGIYASINING DOLZARB MUAMMOLARI

Sharipova Kamola G'aybulla qizi

Osiyo xalqaro universiteri

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi

1- kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaxs o'rganishning psixologiya uchun xosligi, shaxsning shakllanish jarayoniga shaxslararo munosabatlardan tashqari jamiyatdagi mavjud siyosiy doiralar va mafkuraviy qarashlar ham katta ta'sir ko'rsatishi to'liqroq yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Sotsial psixologiya, ijtimoiy-psixologik yondashish, yondashuv sotsializatsiyasi, shaxslararo munosabatlar.*

Muloqot jarayonining ham, guruhiy jarayonlarning ham egasi - subyekt hamda obyekt aslida, alohida shaxs, konkret odamdir. Shuning uchun ham Ijtimoiy psixologiya alohida shaxs muammosini ham o'rgandiki, uni o'sha turli ijtimoiy jarayonlarning ishtirokchisi va faol amalga oshiruvchisi degan nuqtai nazardan tekshiradi. Ma'lumki, shaxs muammosi umumiy psixologiyada ham, pedagogik psixologiyada ham, differensial, huquqiy psixologiya va psixologiyaning qator maxsus bo'limlarida ham o'rganiladi. Har bir bo'lim yoki tarmoq uni oz mavzu va vazifalari nuqtai nazaridan shaxsga taalluqli bolgan muammolarni yoritadi. Masalan, umumiy psixologiya shaxsni psixologik faoliyatning maxsuli, alohida psixik jarayonlarning egasi deb hisoblansa, sotsiologiya uni ijtimoiy munosabatlarning obyekt deb qaraydi.

Shaxs muammosiga ijtimoiy-psixologik yondashishning o'ziga xosligi shundaki, u turli guruhlar bilan boladigan turli shakldagi o'zaro munosabatlarning oqibati sifatida qaraladi. Ya'ni Ijtimoiy psixologiya, avvalo, biror guruhning a'zosi hisoblangan shaxs xulq-atvori qanday qonuniyatlarga bo'ysunishini, shaxsning muloqotlar sistemasida olgan ta'sirlari uning ongida qanday aks topishini o'rganadi. Guruhning shaxs psixologiyasiga ta'siri qay yo'sinda sodir bolishi ijtimoiy psixologiyada sotsializatsiya muammosi bilan uzviy bog'liq bo'lsa, bu ta'sirlarning shaxs xatti-harakatlari, xulqida bevosita qanday namoyon bolishi ijtimoiy yo'l-yo'riqlar muammosi bilan bog'liqdir. Ana shular asosida shaxsda shakllanadigan fazilatlar va ularning turli tipdagi shaxslarda namoyon bolishini aniqlagan holda, shaxs xulq-atvorini boshqarish mexanizmlarni ishlab chiqish Ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Shaxs psixologiyasining shakllanishiga u mansub bo'lgan ma'lum bir ijtimoiy guruhlarning munosabatlari ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday o'zaro ta'sir va muloqot jarayonida shaxslarning bir-biriga ta'siri sodir bo'lishi bilan birgalikda, jamiyatga, mehnatga, odamlarga, o'zining shaxsiy sifatlariga nisbatan o'z qarashlariga,

Ijtimoiy ustanovkalariga ta'sir o'tkazishi sodir bo'ladi. Ma'lum bir ijtimoiy muhitda yashar ekan, shaxs u yerda o'ziga xos o'ringa, obro'ga, rolga ega bo'ladi. Hozirgi zamon ijtimoiy psixologiyasi sohasida shaxsni o'rganish ustida olib borilayotgan tadqiqotlar masalasi, ayniqsa bu boradagi amaliy vazifalar ijtimoiy psixologiya fanining markazida turuvchi psixologik va sotsiologik yondashuv yo'nalishlari asosida hal qilinmoqda. Masalan, Amerika va boshqa barcha g'arb davlatlarida shaxsni o'rganishga nisbatan ikki xil ijtimoiy psixologiya - «Psixologik ijtimoiy psixologiya» va «Sotsiologik ijtimoiy psixologiya» mavjud. Bu yo'nalishlar bir-biriga o'xshasada, ularning bir-biridan farqli jihatlari ham mavjud. Ya'ni psixologik ijtimoiy psixologiya shaxs va faoliyat, muomala, shaxslararo munosabat, shaxsning ijtimoiy-psixologik tuzilishi, shaxsning kognitiv, konativ, xulq-atvor imkoniyatlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy ustanovkalar, shaxs va jamoaning ijtimoiy-ruhiv kechinmalari kabi muammolar ustida tadqiqot olib borishni maqsad qilib olgan bo'lsa, sotsiologik ijtimoiy psixologiyada esa ko'pincha jamiyatning ijtimoiy qatlamlarini tahlil qilish, xalqlar psixologiyasi, ommaviy hodisalar psixologiyasi, sinflar, guruhlar, gumanistik psixologiya kabilarga alohida urg'u beriladi. Ijtimoiy psixologiyada shaxsni o'rganishning o'ziga xosligini tushuntirish va ko'rsatish maqsadida bu sohada ish olib borayotgan barcha olimlar o'z qarashlarini o'ziga xos tarzda ifodalay olgan. Shulardan biri D.Mayers ijtimoiy psixologiyada shaxsni o'rganishning o'ziga xosligini tahlil qilish uchun barchaga ma'lum bo'lgan bir ertakdan foydalanadi. Bu ertak yoqimtoy Zolushka haqidagi ertak bo'lib, unda quyidagicha mazmun aks ettiriladi:

Taqdir taqozosi bilan Zolushka shahzoda uyushtirgan katta bal (qadimda boy xonadonlar tomonidan maxsus uyushtiriladigan raqs kechasi) ga tushib qoladi va shahzodaning e'tiboriga sazovor bo'ladi. Zolushkani qattiq sevib qolgan shahzoda uni izlab kelib, o'gay onaning xonadonida ko'rganida avvaliga tanimaydi.

Nega?

Bu ertak shaxs va uning atrofidagi muhit munosabatlarini tushunib olish uchun juda sodda misoldir. Zolushka shahzoda huzuridagi balda go'zal, xushchaqchaq, jozibali ko'ringan bo'lsa, o'gay ona huzurida butunlay boshqacha ko'rinadi va o'zini boshqacha tutadi. Balda u o'ziga nisbatan ijobiy munosabatlar doirasida o'zini go'zal va ajoyib qiz ekanligiga ishonib aloqaga kirishgan bo'lsa, o'gay onasining uyida unga nisbatan salbiy munosabatlar ta'sirida o'ziga nisbatan past baho berishi natijasida o'zini tortinchoq, kamgap tutadi.

Fransuz filosofi Jan Pol Sartrning ta'kidlashicha, Zolushka bilan sodir bo'lgan voqeada hech qanday hayratlanarli narsa yo'q, uning fikricha, biz odamlar «hamisha vaziyatlarga bog 'liqmiz. Bizni vaziyatlardan ajratib bo 'lmaydi, vaziyatlar shaxs sifatida bizni va bizning imkoniyatlarimizni shakllantiradi».

Ijtimoiy psixologiya predmetining qabul qilingan ta'rifiga, shuningdek, A.N.Leontiev tomonidan taklif qilingan shaxsni tushunishga asoslanib, qo'yilgan savolga javobni shakllantirish mumkin. Ijtimoiy psixologiya shaxsning ijtimoiy shartlanishi masalasini

maxsus tadqiq qilmaydi. Avvalo, qaysi aniq guruhlarda shaxs, bir tomondan, ijtimoiy ta'sirlarni (o'z faoliyatining qaysi tizimlari orqali) o'zlashtiradi, boshqa tomondan qanday qilib, qaysi aniq guruhlarda o'zining ijtimoiy mohiyatini (qo'shma faoliyatning qanday aniq turlari orqali) amalga oshiradi. Buning uchun ko'proq darajada ichidan ko'ra garchi mikromuhit shaxsiyatning shakllanishi, garchi bu tadqiqotni va uning shakllanishining makro muhitini rad etishni anglatmasa ham sotsiologik tahlil qilish, asosiy e'tibor qaratiladi. Sotsiologik yondashuvga qaraganda, bu yerda shaxslararo munosabatlarning butun tizimi va ularning hissiy jihatdan tartibga solinishi kabi shaxsning xatti-harakati va faoliyatini tartibga soluvchi omillar hisobga olinadi.

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va asosiy vositalarni jadal yangilash zarurati sharoitida lizing xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsiya faoliyatini moliyalashtirish shakli sifatida alohida ahamiyatga ega.¹

Zamonaviy dunyoda oila yangi shakllarga ega va bilan taqqoslaganda sezilarli darajada o'zgartirilgan oldingi avlodlar davomida qabul qilingan oilaviy munosabatlarning an'anaviy shakllari.

Ijtimoiy psixologiya "ijtimoiy jihatdan aniqlangan shaxs" ning xatti-harakati va faoliyatini ko'rib chiqadi. beton real ijtimoiy guruhlar, individual hissa guruh faoliyatida har bir shaxs, sabablari, umumiy faoliyatga ushbu hissaning qiymati bog'liq. Aniqrog'i, bunday sabablarning ikkita turkumi o'rganiladi: shaxs harakat qiladigan guruhlarning tabiati va rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lganlar va shaxsning o'zida, masalan, uning sotsializatsiyasi sharoitida.

Xulosa qilib aytganda, shaxsga sotsial-psixologik yendoshish uni ma'lum guruhlarning a'zosi, konkret sharoitda o'ziga o'xshash shaxslar bilan muloqotga kirishuvchi konkret odam deb tushunishdir. Shaxs sotsializatsiyasi to'g'risida gap ketarkan, uning fanda ko'pincha "Shaxs taraqqiyoti" yoki "Tarbiyasi" tushunchalari bilan sinonimdek ishlatilishiga alohida e'tibor berish kerak. Lekin sotsializatsiya sof ijtimoiy-psixologik tushuncha bo'lib, aytib o'tilgan tushunchalardan farq qiladi. Sotsializatsiya - bu individning ijtimoiy muhitga qo'shilishi, ijtimoiy ta'sirlarni o'ziga singdirishi va aktiv ravishda muloqot sistemasiga kirib borish jarayonidir. Bu jarayon ikki tomonlama bolib, bir tomondan, shaxs aktiv ravishda ijtimoiy ta'sirlarni qabul qiladi, ikkinchi tomondan esa, ularni hayotda o'z xulq-atvorlari, munosabatlarida namoyon boladi. Bu jarayon normal individda tabiiy tarzda ro'y beradi, chunki

individda shaxs boTishiga extiyoj hamda shaxs boTishiga imkoniyat va zaruriyat bordir. Shuning uchun ham bola tug'ilib, ijtimoiy muhitga qo'shilgan ondan boshlab, undagi shaxs boTishiga intilishni, undagi shakllanish jarayonni kuzatish mumkin(masalan, chaqaloqlardagi bevosita emotsional muloqotda extiyojning borligi).

Shaxsning shakllanishi asosan uch sohada amalga oshiriladi:

1) Faoliyat sohasi, ya'ni umr mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalb etilgan bo'Tib, bu jarayonda fan katalogi kengayib, boyib boraveradi. Har bir faoliyat turi individdan maxsus fazilatlarning, malaka va ko'nikmalarining, bilimlarning borligini talab etadiki, ularni qoniqtirish yo'lidagi aktivligi unda o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kompleksini shakllantiradi;

2) Muloqot sohasi, ayniqsa maktabgacha yosh davrdagi va o'smirlik davrlaridagi muloqot sistemalari bolada bir qancha ijtimoiy hislatlarni paydo qiladiki, uning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo'ladi, jamiyatda o'z o'rnini tasavvur qilishga erishadi.

3) Oz-o'zini anglash sohasi, ya'ni "MEN" obrazining yil sayin o'zgarib borishi jarayoni bo'lib, avval o'zini boshqalardan farqliligini, o'zicha mustaqil harakat qilish, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini anglash, so'ngra oz-o'zini baholash, anglash, nazorat qilish xususiyatlari rivojlanadiki, ular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismidir. Shaxs sotsializatsiyasi, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bola tug'ilishi bilan boshlansa-da, sezilarli, samaradorlik nuqtai nazaridan uning bosqichlari farqlanadi. Masalan, birinchi bosqich - mehnat faoliyatigacha bo'Tgan bosqich bo'Tib, unga bolaning maktabgacha yosh davri hamda o'qish yillari kiradi. Bu davrdagi sotsializatsiyaning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu davrda, asosan, tashqi ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta'sirlar faol ravishda ongda singdiriladi, mustaqil hayotga tayorgarlik borasida muhim bosqichga o'tiladi. Ikkinchi bosqich - mehnat faoliyati davri - bu davr odamning yetuklik yillari bilan bog'liq bo'lib, avvalgi davrlarda singdirgan ijtimoiy ta'sirlarni bevosita faoliyatida, shaxslararo munosabatlar sistemasida namoyon etadi. Kasbga ega bo'Tib, aniq hayot yo'lini tanlagan, turmush qurib, kelgusi avlodni tarbiyalayotgan shaxsda namoyon bo'Tadigan barcha ijtimoiy fazilatlar shu davrning maxsulidir. Nihoyat, uchinchi bosqich - mehnat faoliyatidan keyingi davr bo'Tib, bunga, asosan, aktiv mehnat faoliyatidan so'ng qarilik gashtini surayotganlar kiradi. Bu davrda ham shaxs sotsializatsiyasi davom etaveradi, chunki endi ilgari davrlarda orttirilgan tajriba boshqalarga uzatiladi, shunga ko'ra shaxs strukturasi ham xususiy o'zgarishlar ro'y beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madumarov Talatbek Tolibjonovich, & Gulomjonov Odiljon Rahimjon o'g'li. (2021). PREREQUISITES FOR THE DEVELOPMENT OF A LEASING MECHANISM IN PUBLIC - PRIVATE PARTNERSHIP. International Engineering Journal For Research & Development, 6(SP), 5. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/7MXR3>
2. Abdullayev Akmal Nasriddinovich (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. European science review, (3-4), 69-72.
3. N. Ismoilova, D.Abdullayeva. Ijtimoiy psixologiya. 2013. Qisqacha psixologik lug'at. - Rostov-na-Donu: FENiKS. L.A.Karpenko, A.V.Petrovskiy, M.G.Yaroshevskiy.1998.

4. G'oziyev E. G. Umumiy psixologiya. Toshkent 2002. 1-2 kitob
5. G'oziyev E. G. Muomila psixologiyasi.
6. Belinskaya E. P., Tixomandritskaya O.A. Shaxsning ijtimoiy psixologiyasi. M., 2001.
7. Kon I. S. Shaxs sotsiologiyasi. M., 1967.
8. Leontiev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxsiyat. M., 1975.